

“FOLKLOR, TIL VA MADANIYAT MASALALARINI ILMIY O‘RGANISHDA FAN VA INNOVATSIYALAR UYG‘UNLIGI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti. – Toshkent: 2023

Mas‘ul muharrir:

E.U. Shermonov –

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti rektori,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD, dotsent.

Tahrir hay‘ati:

S.S. Jumayev –

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, professor.

J.S. Eshonqulov – filologiya fanlari doktori, professor

M. Yuldashev – filologiya fanlari doktori, professor

H. Ismoilov – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

Sh. Turdimov – filologiya fanlari doktori

D. Jumayeva – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nashrga tayyorlovchilar:

K. Isayev,

K. Tashmatova,

O. Shobilolova,

F. Abduraxmonova,

Z. Marufova,

N. Palvanova.

Ushbu to‘plamdan “Folklor, til va madaniyat masalalarini ilmiy o‘rganishda fan va innovatsiyalar uyg‘unligi” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari joy olgan bo‘lib, unda folklor, til va madaniyat masalalari tadqiqiga bag‘ishlangan xorijlik va o‘zbekistonlik taniqli olimlar bilan bir qatorda ilm ostonasiga kirib kelayotgan yosh izlanuvchi-tadqiqotchilarning ham maqolalari o‘rin olgan.

Ming yildan ortiq tarixga ega bo‘lgan til, folklor, adabiyot va san‘atimizni dolzarb masalalari yetakchi olimlar hamda izlanuvchilar tomonidan chuqur o‘rganilgan, qiyosiy tadqiq etilgan. Folklorshunoslik, til, adabiyot va madaniyat sohasini rivojlantirishga o‘z hissasini qo‘shgan allomalar, ijodkorlar merosini yoshlar qalbiga singdirish, mamlakatimiz rahbari tomonidan ilgari surayotgan ma‘naviy merosimiz, milliy qadriyatlarimizni o‘rganishda yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish g‘oyasi ilmiy izlanishlarda o‘z aksini topgan.

“MAJOLIS UN-NAFOIS”NING NAFIS XILQATLARIGA QAYTIB

Adolat Omonbayevna BEKTURDIYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TA universiteti
Folklorshunoslik va dialektologiya kafedrası stajyor-o‘qıtuvchısı
adolatomonbayevna@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada turkiy dunyoning tengsiz ijodkori Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkırasi diqqat markaziga olindi. Asarning bugungi kungacha ochiqqlangan va ochiqqlanmagan o‘ziga xosliklarini ko‘rsatib berishga, Navoiyning adabiyat va san‘at homiysi, o‘z davrining mulohazakor tanqidchısı sifatidagi qırralarini ochib berishga harakat qilindi. Asl maslagi she‘r va shoirlikdan yiroqligıga qaramasdan g‘oyat go‘zal baytlar bitgan zamona ahli haqidagi nodir ma‘lumotlar munozaraga tortildi. Tazkıradagi ma‘lum va mashxur shaxslarning ijodlaridan kelirilgan baytlar tahlil qilindi, Navoiy ta‘biri bilan aytilgan qusur va kamchiliklarga e‘tibor qaratildi. Adabiyot va san‘atning ma‘lum sohasida un qozongan shaxslarning ijodi baholi qudrat ko‘rsatib berildi.

Annotatation. In this article, the “Majolis un-nafois” tazıf of Alisher Navoi, an incomparable creator of the Turkic world, was brought into the center of attention. An attempt was made to show the features of the work that have been disclosed and not disclosed to this day, to reveal the facets of Navoi as a patron of literature and art, as well as a thoughtful critic of his time. Despite the fact that the original topic is far from poetry and poetry, the rare information about the people of the time who wrote very beautiful verses was discussed. Verses from the works of famous and well-known persons in Tazkır were analyzed, and attention was paid to the flaws and shortcomings mentioned by Navoi. The creativity of people who have gained fame in a certain field of literature and art has been shown.

Аннотация. В данной статье в центр внимания поставлен тазıф «Мажолıs ун-нафоıs» Алишера Навои, несравненного творца тюркского мира. Предпринята попытка показать раскрытые и не раскрытые до сих пор особенности творчества, раскрыть грани Навои как покровителя литературы и искусства, а также вдумчивого критика своего времени. Несмотря на то, что исходная тема далека от поэзии и поэзии, обсуждались редкие сведения о людях того времени, писавших очень красивые стихи. Были проанализированы стихи из произведений известных и известных в Тазкıре лиц, обращено внимание на недостатки и недостатки, упомянутые Навои. Показано творчество людей, получивших известность в определенной области литературы и искусства.

Kalit so‘zlar: tazkır, “Majolis un-nafois”, XVasr, salaflar, “Bahoriston”, she‘r va shoirlik ilmi, janrlar, “bozguna”, “muammo” va h.k.

Key words: tazkır, “Majolis un-nafois”, XVasr, predecessors, “Bahoristan”, poetry and science of poetry, genres, “bazguna”, “muammo”, etc.

Ключевые слова: тазкır, «Мажолıs ун-нафоıs», XVаср, предшественники, «Бахорıстан», поэзия и наука о поэзии, жанры, «базгуна», «муамма» и др.

Hazrat Navoiyni adabiyotshunos olim sifatida namoyon etuvchi nodir asarlaridan biri “Majolis un-nafois” tazkırasidir. Asarda XV asr Movarounnahr, Xuroson va Xorazmda kechgan adabiy muhit o‘z aksini topgan. Unda Navoiyning adabiy-estetik qarashlari, o‘z zamonasining adabiyot ahli va o‘zidan oldin o‘tgan salaflarining ijod va uslubdagi mahoratları, ularning ijodiga aytilgan alqov va tanqidıf fikrlari, she‘r va shoirlik borasidagi maslahatlari, adabiy tur va janrlarga oid qimmatli ma‘lumotlar, ustoz-shogirdlik munosabatlari g‘oyat sodda va go‘zal til bilan bayon etilgan. Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkırasi XV asr o‘zbek va fors-tojik adabiyoti tarixini o‘rganish bilan bir qatorda mazkur davrning ijtimoiy hayoti haqida tasavvurga ega bo‘lishda ham alohida ahamiyatga ega. Shuningdek, unda XV asrda yashab, turkiy va forsiy tilida ijod qilgan zullisonayn shoirilar va zamon fozillari haqida ma‘lumot beriladi. Adabiy dalillar XV asrning birinchi yarmida turkiy adabiyotda katta jonlanish yuz berganligini ko‘rsatadi.

Bu holatni adabiyotda turli she‘riy shaklda yaratilgan sara asarlarda, salohiyatli ijodkorlar safining ko‘pligi misolida ko‘rish mumkin. Yana bir muhim tomoni shundaki, adabiyot maydoniga shiddat bilan kirib kelgan iqtidorli qalam sohiblari bir xalqning ma‘naviy me‘rosidan bahra olish, uni boyitish bilan kifoyalanmay, ikki xalq ma‘naviy chashmalaridan nur emib, ular zavqi, armoni, orzu-istagini hisobga olgan holda dilbar asarlar yozishgan. Shu tariqa turkiy xalqlarga mansub qalam ahli o‘z ona tili bilan bir qatorda fors-tojik tilida ham g‘oyaviy-badiiy jihatdan barkamol asarlar ijod eta boshladi. Bunday xayrli urinishlar tufayli zullisonayn ijodkorlar safi tobora kengayib bordi.

Navoiy “Majolis un-nafois”da shunday shoirlardan qırqqa yaqinini zıkr etadi. Asarda turkigo‘y va zullisonaynligi bilan shuhrat qozongan Mavlonı Naimiy, Harimiy Qalandar, Mavlonı Tarxoniy, Darvesh Nozukiy, Mavlonı Lutfiy, Mavlonı Yaqiniy, Mavlonı Muqimiy, Mavlonı Kamoliy, Mavlonı Latifiy, Mavlonı Shavqiy, Mavlonı Zıyo, Mavlonı Gadoiy, Abulqosim

Bobur Mirzo, Mavlono Bilol kabi tab' ahli haqida ham g'oyat samimiy fikr-mulohazalar bildirib, ularning har ikki tildagi ajoyib baytlaridan namunalar keltiradi. Ana shu nomlarning o'ziyoq XV asrning birinchi yarmida adabiy muhit g'oyat gavjum bo'lganligidan dalolat beradi. XV asr ikkinchi yarmiga kelib esa turkiy tilde she'r bitish jarayoni shunchalik katta kuchga ega bo'ldiki, turkigo'y shoirlarning shuhrati zamonna tutdi. Fikrimizcha, Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois"da turkiy tilda asar yozgan shoirlarni-turkigo'ylarni (qayd etish lozimki, ular ham ikki tilda ijod qilgan) alohida uqtirishi sababsiz bo'lmas kerak. Zero, bu urinishlar Navoiyning o'z zamonasi adabiyoti va o'z turkiy tilini yanaqada sayqallashtirish uchun kurashayotganligining yorqin isbotidir. Adabiyotning yuksak badiiyligi va g'oyaviyligi uchun kurashishda Navoiy ilg'or o'rinlarda turadi. Alisher Navoiy shoirning ijodiy va axloqiy qiyofasini bir biri bilan uzviy bog'langan holda tushunadi. Shuning uchun ham shoirlarning ijodiy xususiyatlarini ta'riflashga urinar ekan, biryo'la ularning axloqiy qiyofasini ham yoritishga harakat qiladi. Shu tariqa o'zining badiiy ijodga bo'lgan munosabatini ko'rsatadi. Tahlilga tortganimiz "Majolis un-nafois" tazkirasidan ma'lum bo'ladiki, Navoiy kamtar, o'ziga talabchan, chuqur mulohazali, dono shoirlarning ijodini yuksak baholaydi, ularga ijobiy munosabat bildiradi. Axloqan zaif shoirlar ijodining xususiyatini esa ularning axloqiy qiyofasiga bog'laydi va bunday ijod vakillariga nisbatan salbiy munosabatda bo'ladi.

Asarda Navoiy qarashlarida yozuvchining mavqeyi, mahorati, shaxsiy xarakteri, axloqi bir-biri bilan bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Uningcha, yozuvchining jamiyatga ziyon keltiradigan xatti-harakati ijodiga ham ta'sir etmasdan qolmaydi. Masalan, Mavlono Abdulloning "she'ri el orasida bag'oyat mashhur" bo'lsa ham Navoiy uning "rivoji nomaqdurligi"ni ta'kidlaydi. Bunga asosiy sabab esa Mavono Abdulloning takabburligi, masnaviyda Nizomiy, Xusrav va hatto Jomiyning pisand qilmasligidadir. Ko'rinadiki, Navoiyning estetik qarashlarida axloq va ijodning birligi, mutanosibligi o'z aksini topgan. Ulug' adib har qanday shaxsning axloqiy pokligi, buyuklar, salaflar ijodiga ehtirom bilan qarashi, badiiy ijodda ham turmushdagidek kamtar bo'lish hayotiy zarurat ekanligini uqtirishi har qanday davr uchun ham ibratlidir. U adabiyotni hayot bilan bog'lay olgan shoirlarni sevadi. Adabiyotni hayotdan ajratmagan holda tasvir etishni ma'qul ko'radi. Ayni shu jihatdan ham Navoiy "Majolis un-nafois"da faqatgina she'r va shoirlikka mansub tabaqa ahllari haqida yozmasdan, XV asr madaniy va siyosiy hayotida ko'zga tashlangan, adabiyot va san'atga befarq bo'lmagan har qanday maslak sohiblarini qalamga oladi. Ular orasida asli kasbi "kamardo'zluq" bo'lgan Mavlono Tole'iy, "kosagarlik san'atiga mansub" - Mavlono Mashriqiy, "naqqoshliqdin vuqufi bor" - Mavlono Havoyi, "xaymado'zluq san'atiga mansub" - Mavlono

Mir Arg'un, "ko'ftgarlik bila mashhur" - Mir Hoshimiy va b.q ko'rishimiz mumkin⁶³.

Navoiy asarda nomlari zikr etilgan shaxslarni faqat ijodiy mahoratigagina ta'rif berib qolmasdan, ularning tan-sihatliklari, jussasida dardi bor bo'lsa ularni ham to'laligicha bayon etgan. Jumladan, "avvalgi majlis"da tilga olingan Mavlono Qudsiy "*hiriylikdur, shiringo'y kishi ermish. Va og'zida laqva marazi bor erdi, andoqkim og'zidin suv borur erdi va zabt qila olmas erdi*" – deya ta'riflaydi va ijodidan bir bayt keltrib o'tadi:

Bu vujudi chunin dahanki, marost,

She'r go'yamki, ob az u bichakad.

Mazmuni: Menda shunday og'iz bo'lishiga qaramay, she'r aytayki, undan suv chakillab tursin.

Yana ikkinchi majlisda zikr etilgan Mavlono Abduqahhor "donishmand kishi erdi. Hiri shahrining mutaayyin xush tab'laridin erdi. Mavlolononing xayoli kimyogarlikka tushib ko'p nima zoye' qildi va hech nima hosil qila olmadi. Ko'p o't puflagandin modda qulog'i sori inib kar bo'lub erdi. Ammo xub abyoti bor erdi." deyiladi.

Alisher Navoiy "Majolis un-nafois"da yoshi ulug' usozlarga alohida to'xtaladi. O'ziga bevosita va bilvosita ustoz bo'lgan shoirlarni qalamga oladi. Tazkiraning muqaddima qismi an'anaviy hamd va nad bilan boshlanib, unda "hazrati maliki allom"ning "kalomi mujiz nizomi" ya'ni Qur'oni karim, uning "Jabraili hujasta farjom vositasi bila xayr-ul-anom alayhissalavotu vassalamg'a" nozil bo'lishi bayoni keltiriladi. O'ziga ustoz va munisi hamdam deb bilgan kishisi mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy nomi ham muqaddimaning o'zidayoq yuksak iltifot bilan tilga olinib, uning "Bahoriston" asariga go'zal ta'rif va sifatlashlar beriladi.

Asarning yettinchi bobini shoirlarga bag'ishlanganligini nazarda tutib, mohiyatan bu bob tazkiraga menzaladi va unda Rudakiydan Navoiygacha bo'lgan 37 nafar ijodkor haqida ma'lumot mavjuddir. "Bahoriston" ning sakkiz qismdan iborat ekanligi va har bir qismni "bir ravzai jannatdir" – deya ta'riflaydi. Jomiy uni shunday bezaganki, unga Chin nigorxonasining ham rashki keladi, deya ohorli tashbexlar qiladi. Shu o'rinda aytishimiz lozimki, Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkisasi ham o'z ta'biri bilan aytganda, har majlisi bir ravzai jannatdir. Avvalgi majlisda Navoiy Mavlono Yah'yo Sebak ijodiga alohida to'xtalib, "aning tab'i diqqatinini har kishiki bilay desa "Shabistoni xayol" degan kitobini ko'rsun"-deydi. So'zining so'ngida "bu faqir aruz fanida vosita bilan Mavlolononing shogirdiman" deya e'tirof etadi. Yanikim. Navoiy aruzni Darvesh Mansuridan o'rgangan bo'lsa, Darvesh Mansur aruz ilmida Yah'yo Sebakning shogirdidir. Tazkiraning ikkinchi majlisda shoir bolaligi va yigittligi paytida suhbatiga musharraf bo'lgan shoirlar haqida hikoya qiladi. Bu majlis mashhur tarixchi, "Zafarnoma" asari muallifi Sharafiddin Ali Yazdiy zikri bilan boshlanadi. Majlisda Navoiy o'zining tarbiyasi va ijodiy kamolotiga alohida ta'sir ko'rsatgan zotlar: Xoja Fazlulloh Abullaysiy ("faqir ikki yil alarning qoshida sabaq o'qub erdim, ancha ilifotlari

⁶³Алишер Навоий. Мукамал асарлар. 20 жылдик. 13-жилд. Мажолис ун-нафоис. Т.: "Фан", 1997.

bor erdikim, “farzand” der edilar”), Shayx Sadridin Ravosiy (“sharif suhbatig’a faqir musharraf bo’ldim, “Fusus” dars aytur erdi, ko’nglumni base sayd qildi.), Shayx Kamol Turbatiy (“faqirning ani ko’rarga ko’p orzum bor erdi, oshnolig’ bu nav voqe’ bo’ldikim, Sulton Abu Said Mirzo zamonida Mashhadda g’arib va hasta bir buq’ada yiqilib erdim. Qurbon vaqfasi bo’ldi, olamning aqso bilodidin xalq imom ravzasi tavofig’a yuz qo’yduklar. Rasmdurkim, musofirlar muataayyin buq’a gashtiga ham borurlar, ul buq’adakim, faqir yiqilib erdim, jamoati mavolivash el sayr qilib, devorda bitilgan abyotni o’qib, bir bayt ustida bahsga tushdilar. Bir ulug’roq kishikim, ul jamoat anga tobe’ erdilar, ul jamoatni ilzom qildi. Faqir za’f hoida ul jamoat jonibidin so’z ayttim. Anga dedilarkim: bu bemor yigit ham bir so’z aytadur. Ul ulug’roq kishi xud Shayx Kamol ermishkim, ziyoratga kelgan ermish, boshim ustiga kelib, mahbasni orag’a soldi. Faqir javob bergach, o’z so’zidan qaytib, tahsinlar qilib, holimni tafahhus qildi. Ersa ul ham faqirni eshitgan ekandur va ko’rar havasi bor ekandur.”), Darvesh Mansur (“faqir aruzni Darvesh qoshida o’qubmen”), Hofiz Ali Jomiy (“qiroat ilmida jamei qurro aning shogirdligiga mubohat qilurlar erdi. Va faqir ham necha sabaq o’qubmen”), Mavlono Muhammad Muammoiy (“muammo fanida zurafo aning shogirdi erdim”), Xoja Yusuf Burhon (“... faqir musiqiy fanida aning shogirdimen”)lar haqida qimmatli ma’lumotlarni beradi.

Navoiy tazkiraning har bir majlisida o’zgacha ijod va iste’dodi bor bo’lgan zotlarni tilga olib o’tarkan, shu bilan bir qatorda jununiy sifatga ega bo’lgan shoirlar ijodidan ham baytlar keltiradi. Jumladan, “Majolis un-nafois”ning ikkinchi majlisida Mir Haydar Majzub nomini tilga olarkan, “Yigitligida zohir ulumin takmil qilib erdi, hamul vaqtda anga jazaba yetishtikim, aqli zoyil bo’ldi”-deya ta’rif etadi. Shunday bo’lishiga qaramasdan, “nazmida g’arib abyot voqe’ bo’lur erdi”-deya ijodidan bir bayt keltiradi. Shu qismning o’zida yana Mir Mufliisij ijodiga to’xtalib, “Tab’i xub erdikim, anga jazaba yetishtikim, aqli zoyil bo’ldi. Ilkiga va barmoqlariga xalqalar solur erdi. Doim o’z-o’zi bilan so’zlashur erdi. Hushi borida yaxshi abyotlar aytib erdi”-deya ijodidan namuna kelirib o’tadi va “bu taxallusi ham el ichida mashxurdir”-deydi:

Xalq go’yad Mufliisij devona shud,

Lojaram devonagi az mufliisist.

Mazmuni: Xalq Mufliisij devona bo’libdi, deydi. Axir devonalikning o’zi mufliis(faqirlik)danku!

Tazkirani o’qir ekanmiz, unda Navoiy zamon fozillarini, she’r ilmida yaxshigina abyotlari bor bo’lgan zotlarni olqishlab, ijobiy fikrlar bildirish bilan bir qatorda, qalami o’tkir tanqidchi sifatida ham namoyon bo’ladi. Qofiya va badiiy tasvirlarida qusuri bor bo’lgan ijodkorlarga o’z maslahat va ko’rsatmalarini ayamaganligini ham ko’rishimiz mumkin. Jumladan, asarning ikkinchi majlisida nomi zikr etilgan Mavlono Abdusamad Badaxshiy ijodiga to’xtalar ekan, uning Sulton Abu Said Mirzo zamonida Hirotda kelgani, podshoh o’z tarixnini yozishni unga buyurganini, “masnaviyo’g’y va musannif kishi” ekanini aytadi. “Bir baytida tajnis xayol qilib, qofiyasin g’alat qilib erdi,

faqir ani voqif qilg’och filloh muttanabbih bo’ldi va izhori minnatdorlig’ ham qildi” – deydi. Navoiyning bu qilgan ishi Abdusamad Badaxshiy va Navoiy orasida “oshnoliqqa sabab” bo’lganligini alohida ta’kidlaydi. Ayni shu majlisning o’zida Mavlono Ayoziy ta’rifi kelganda, “har bayt bunyod qilsa, so’z uslubidin qofiyasin ayta berur erdim. Bag’oyat hayrat qildi” – deya Puli Molonda bo’lgan majlisidagi latif voqeani keltirib o’tadi va majlis ahli ham bundan behad shod bo’lganligini aytadi.

“Badiiy” taxallusi bilan un qozongan andijonlik Mavlono Yusuf Samarqandda Navoiy bilan tanishib qoladi, Navoiy uning abyotlariga to’xtalarkan, “sig’ari sin jihatidin she’rida xomlik bo’lsa, faqir isloh qilur erdim” – deydi. Navoiy turkigo’y shoirlardan Mavlono Atoiy ijodini ta’riflarkan, “o’z zamonasida she’ri atrok orasida ko’p shuhrat tutgan”inini aytadi, ammo “qofiyasida aybg’inasi bor. Ammo ko’p turkona aytur erdi. Qofiya ehtiyotig’a muqayyad emas erdi”- deya dadil fikrlar bildiradi. Yana bir narsa e’tiborimizni tortadiki, Navoiy Mavlono Sakkokiy haqida ma’lumotlar berar ekan, “Mavlono Lutfiyning barcha yaxshi she’rlari aningdurkim, o’g’urlab o’z otig’a qilibdur” – deya Sakkokiy ijodidagi bu qusurni o’z zamonining ziyrak bilimdoni sifatida ochiq oydin yozib qoldiradi. Yana shunday shoirlardan biri sifatida Mavlono Anisiyini ham “elning she’rini o’ziga bog’lar” – deya kim qanday matla’ aytsa o’ziniki qilar edi deb izoh beradi.

Navoiy o’z zamonasining ilmparvar kishisi erdi. U bir qancha qalam ahllariga, ularning ijod osmonida yangi yulduz bo’lib porlashiga ham homiylik qildi. Tazkirada faqatgina she’rga ixlosi va mahorati bor bo’lganlarni jamlamadi, ayrimlarni “she’rni yaxshi aytur erdi, ammo imlosi durust ermas erdi”- deya ta’rif etadi. Xattotlik va ilmi savodda g’oyat yuksak iqtidor egasi bo’lganlarni qadrlaydi. Chapdan o’ngga qarab yozish usuli bo’lgan “bazgona” xatining mohir ustasi sifatida uchinchi majlisda mashhadlik Mavlono Majnun nomini keltirib o’tadi va unga shunday ta’rif beradi: “xushnavis yigitdur, “bozguna” xatini andoq ravon va sof biturkim, mahalli taajjubdur va ko’rmagan kishi ishona olmas”. Ta’rifning o’zi bilangina cheklanib qolmasdan, Mavlono Majnun ijodidan matla’ ham keltiradi;

Ba va’z meravamu zor-zor megir’yam,

Bad-in bahona zi hijroni yor megir’yam.

Mazmuni: Va’z eshitishga borib zor-zor yig’layman, Bu bahona bilan yor hajrida yig’layman. Yana shuni aytishimiz lozimki, Navoiy “Atosi benazir kosagardurkim, chinni yasar va inisi andoq naqsh qilurkim, Chin va Xitoda qila olmaslar”(Mavlono Moniy, 3-majlis) deya o’z zamonasining nodir iste’dod sohibi bo’lgan hunarmandlarini ham alqovlaydi. Yosh va mansabi, amal va unvonidan qat’iy nazar she’r va shoirlikka ko’ngil qo’ygan, o’z iqtidor va iste’dodi bilan Navoiy nigohiga tushganlar orasida hali endi o’n to’rt-o’n besh yoshga yetgan mashhadlik Sayyid Abdullatif ham bor. Hazrat Navoiy unga shunday ta’rif beradi: “o’n to’rt yo o’n besh yoshida bo’lg’ay, muammoni andoq aytur va ocharki mahalli taajjubdur. Ma’lum

emaskim, ul yoshda hargiz bu fanda andoq bor ekan bo'lg'an".

Navoiyning adabiy-estetik olami keng va rang-barang. "Majolis un-nafois" tazkirasida u har bir mavzuga alohida to'xtaladi, she'r va shoirlik ilmiga, unga ixlos qo'ygan har bir qalam kishisiga o'zining estetik tafakkuridan kelib chiqqan holda yondashadi, ijodiga baho beradi. Uning fikricha, ijodga dil bog'lagan odamda, albatta, tabiiy iste'dod bo'lishi lozim. Quruq havas bilan shoirlik da'vo qilish yaramaydi. Eng yomoni shuki, quruq nazmni she'r atab, "yuz mashaqqat bilan bir bayt bog'layturgan, da'vosini esa yetti falakdan oshiraturgan"lar ham bor, deya kuyunib ta'kidlaydi. Ba'zan ulardan biror yaxshi bayt ham voqe bo'lar, lekin bu hali shoirlik da'vosini qilishga huquq bermaydi. Axir, shoir so'zida haqiqat va ma'rifatdan bahra beradigan ma'no, shavq-u zavq va "shu'la-afkan harorat" bo'lmog'i lozim. Haqiqiy iste'dod nishonasi kurtak yozgan odamda ilm olishga ishtiyoq ham, hofiza ham kuchli bo'ladi. Navoiy buni Rumi, Sa'diy, Hofiz, Jomiy kabi yorqin siymolar misolida ko'rsatadi. Shoir yetuk faylasuf, xiradmand odam bo'lgandagina uning so'zi xalq e'tiborini qozonadi, deya asarning ko'plab o'rinlarida shu g'oyani qayta-qayta ilgari suradi. "Majolis un-nafois"da pand-nasihatni qulog'iga olmay, na iste'dodini, na ilmini ishga soladiganlar "ra'nosifat va xudoroyliq bilan avqotini (vaqtini) zoe qiluvchi" deya ta'kidlanadi.

Yana shuni aytishimiz lozimki, tazkirada zikr etilgan yosh shoirlarning ko'plari bilan Navoiy shaxsan tanish bo'lgan, suhbat qilib, sinab ko'rgan, xulqini kuzatgan. Lekin shoir o'zi tanimagan – "emdi paydo bo'lg'on" yoshlarning she'rlari haqida ham fikr yuritib, xolisona baholaydi va ular ijodiga rivoj – oq yo'l tilaydi. Bu jihatdan ham ulug' ustozning tutgan yo'li ibratlidir. Chunki chin ma'nodagi ustod oq yo'l tilaganda yosh ijodkorning yutuqlari bilan birga qusurlarini ham ko'rsatadi, kelgusida qusurlardan qutulish choralarini tavsiya etadi. Bunday holni Navoiy o'z ustozini va maslakdosh do'sti Abdurahmon Jomiy misolida asarning ko'plab o'rinlarida aytilib o'tadi.

Xulosa o'rni shuni aytishimiz mumkinki, tazkiraning ko'zga tashlanadigan birinchi jihati-Navoiy unga o'zi yashab turgan davrdagi shoirlar va shoir bo'lishga harakat qilgan yosh qalam ahllarini

kiritishni asosiy maqsad qilib qo'ygan. Mumtoz adabiyotda Navoiy tazkirasigacha ham arab va forsiy tilda bir qancha tazkiralari yaratilgan: "Lubob ul-albob", "Tazkirat ush-shuaro", "Bahoriston"ning 7-ravzasi va boshqalar. Ammo ular asosan fors-tojik tilida bo'lganligi, faqatgina ijodkorlarning hayotiga oid ma'lumotlariga berilganligi sababli ham turkiy tildagi Navoiy tazkirasiga ehtiyoj juda katta edi. "Majolis un-nafois" tazkirachilikda yangicha uslub va tarkibiy tuzilish jihatidan qimmatli asar sifatida vujudga keldi hamda Movarounnahr tazkirachilik maktabiga asos bo'ldi. Tazkira qardosh turkiy xalqlar adabiyotidagi tazkirachilik taraqqiyotiga ham chuqur ta'sir ko'rsatdi, "Majolis un-nafois"dan keyin paydo bo'lgan turkiy tazkiralarning mualliflari asarlarini asosan Navoiyning mahorat maktabidan anadaza olgan holda tuza boshladilar. "Majolis un-nafois"da Navoiy har bir adabiy tur va unda ijod etib, ma'lum muvaffaqiyatga erishgan shoirlar haqida qiziqarli ma'lumotlar beradi.

Asarning o'ziga xos jihatlaridan yana biri shundaki, unda muallif XV asrdagi zullisonaynlik an'anasi haqida ham qimmatli ma'lumotlarni beradi. Tazkirada bir-ikki jumladagina shoirga va uning ijodiga tanqidiy qiymat beriladi, shoir kimga va nimaga tatabbu' etganligi, u zamonda mavjud bo'lgan qaysi adabiy navga (g'azal, qasida, muammo va boshqalar) ko'proq qiziqqanligi va undagi mahorati qayd etiladi. Shoirdan bir-ikki bayt, yo biron qit'a, ruboiy, muammoni misol tariqasida keltirish bilan ta'rif tugallanadi. Shuningdek unda Sharq adabiyotshunosligidagi biror bir shoir she'rlariga sharh yozish (jumladan, "Sakkizinchi majlis"da Husayn Boyqaro she'riyatiga yozilgan sharh) an'analari mavjud. "Majolis un-nafois"ni bir so'z bilan tasvir etganda uni o'z zamonasining madaniy ko'zgusi desak yanglishmaymiz. Xondamirning fasih tili bilan aytganda esa: "Oliy hazrat nasr fanini o'zlashtirishda taraqqiyning eng yuqori pog'onasiga va avjning eng yuksak darajasiga ko'tarilgan edi...Oliy hazratning nasriy asarlaridan biri-turkiy tilda yozilgan "Majolis un-nafois"dir. Bu aziz kitob hazrati xoqon Shohruh Mirzo podshohligi davridan boshlab, shu zamonga qadar yer yuzini ravshan vujudlari bilan bezagan va bezab turgan olim va shoirlardan ko'plarining ba'zi sifatlaridan va ahvollaridan bayon qiladi".

Foydalanilgan manbalar:

8. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар. 20 жилдлик. 13-жилд. Мажолис ун-нафоис. Т.: "Фан", 1997.
 9. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи, Тошкент-1976.
 10. Ғаниева С. "Мажолис ун-нафоис"асарига тайёрлаган илмий-танқидий матн. –Тошкент: Фан, 1966.
 11. Ғаниева С. "Мажолис ун-нафоис"га изоҳ ва таржималар. АлишерНавоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 13 том. –Тошкент: Фан, 1997.
 12. Хайитметов А. "Мажолисун нафоис" ҳақида баъзи мулоҳазалар. // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. –Тошкент, 1958. №1.
 13. Ўзбек адабиёти тарихи. Муаллифлар гуруҳи. 5 томлик. 2-том. –Тошкент, 1977.
 14. Шарқ мумтоз поэтикаси: Манба ва талқинлар / нашрга тайёрловчи, талқин ва шарҳлар муаллифи Ҳ. Болтабоев. – Тошкент: ЎзМУ, 2006.
- Internet saytlari: www.ziyouz.net; www.ziyouz.com; arxiv.uz; Turkiy adabiyot qatlamlari. 2020

MUNDARIJA

1. **Ozodbek Nazarbekov.** O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va Turizm vaziri tabrigi.....3
2. **Shermonov Eldor Uralovich.** O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori v.b tabrigi.....4

YALPI MAJLIS

3. **J.Eshonqulov.** Doston muqaddimasi va uning qiyosiy tadqiqi masalasi 5
4. **Sh.Turdimov.** "Go'ro'g'li" turkumida "xushkeldi" dostoni9
5. **O. Axmedova.** O'zbek xalq dostonlarida turkumlilik12
6. **A. Еникеева.** Общие корни происхождения и развития узбекских и татарских духовных песнопений15
7. **Savaş Keskin.** Arttirilmişliğin ontolojisi: insan-sonrası varlığın aşkinlik yanilgisi ve aşiri fenomenler18

I SHO'BA

8. **D.Jumayeva.** "Юсуф ва Зулайхо" дostonлариди ёрдамчи образлар19
9. **I.Djumanov.** Халқ оғзаки ижодида инновацион ифода тизимлари21
10. **R.Abdullayev.** Луғатчилик тарихининг нодир манбаси23
11. **N.Sabirova.** O'zbek baxshichiligi rivojida xorazm dostonchilik maktablarining o'rni25
12. **D.Malikova.** O'zbek xalq qo'shiqlari madaniyatida bolalar folklor qo'shiqlarining o'rni30
13. **D.Muhammedova.** Folklor ijro san'atida o'lan janrining o'ziga xosligi33
14. **U.Kurbanova.** Ijodkor yoshlarni tarbiyalash – davr talabi36
15. **T.Fayziyev.** Folklor ansambli rahbari faoliyatining xususiyatlari38
16. **Д.Байтўраев.** Халқ оғзаки ижодининг ёшлар тарбиясидаги ўрни40
17. **А.Зайнутдинова.** Место народного песенного исполнительства в этнохудожественном воспитании детей и подростков42
18. **I.Ganiev.** Изучение игры на гармоне тальянке и на баяне в образовательном процессе казанского государственного института культуры44
19. **N.Abraykulova.** Raqs dramaturgiyasining raqs sahnalashtirishda qo'llanilishi47
20. **N.Shermatov.** Ўзбек фольклор рақс санъати масалалари49
21. **F.Abdurahmonova.** Xalq qo'shiqlarida badiiy san'atlarning aks etishi51
22. **Savaş KESKİN,** Gökhan Kömür. Homo-contentus: insanin içerikleşmesi ve içeriksizleşmesi sorunlarına ilişkin eleştirel bir okuma54
23. **X.Beknazarov.** Musiqiy to'garaklar faoliyatida folklor musiqasining o'rni55
24. **N.Mamatqosimova.** Xalq ijodiyoti namunalari madaniy tadbirlarning badiiy kontenti sifatida57
25. **A.Yuldasheva.** O'zbek estrada qo'shiqlarida folklorizm59
26. **M.Sadikova.** Folklore in learning foreign languages61
27. **I.Yuldashev.**Etnomadaniyat va folklor sinkretikligida etnogumanizm va xalqchilik64
28. **Sh.Abdurasulov.** Чингиз айтматовнинг "асра татигулик кун" романидаги фольклор мотивларининг ўзбек театридаги талқини66
29. **B. To'raboyeva.** Shashmaqom va yunus rajabiyning maqom san'atiga qo'shgan beqiyos hissasi69
30. **A. Адилов.** Соотношение текстового, музыкального и образного решения в узбекских клипах72
31. **J.Turatov.** Folklor-etnografik jamoalarining musiqa san'ati rivojida tutgan o'rni78
32. **M.To'rayeva.** O'zbek xalq bolalar o'yinlarining bugungi kundagi ahamiyati80
33. **M. Qodirova, F.Dadaboyeva.** Folklor –ma'naviyat ko'zgusi82
34. **Д. Абдухаликова.** Пиктографическое письмо как средство коммуникации84
35. **И.Абдурахмонов.** Қадимги давр тасвирий санъатида мифологик мавзулар бадий талқини86
36. **Z.Isokov.** Farg'ona vodiysi aholisi folklorida suv kulti89
37. **S. Zokirova.** O'zbek milliy baleti tarixidan91
38. **A. Кошелева.** Когнитивное развитие личности посредством музыкального образования94
39. **C. Ражабова.** Поэтика и трансформация современного театра96
40. **B.Usmonov, M.Jo'rayeva.** Turizmni rivojlantirishda xalq ijodiyoti namunalaridan foydalanish98
41. **A. Bekturdiyeva.** Majolis un-nafois"ning nafis xilqatlariga qaytib100